

“Tasdiqlayman”  
“UMS” MChJ ma’muriy  
direktori



M.R. Kamalidinov

2026-yil

“UMS” MChJ Markaziy ofisi binosining 7-qavat xonalari uchun dizayn-loyiha hamda  
“UMS” MChJ Markaziy ofisi binosining 7-qavat xonalarini qayta rejalashtirish  
maqsadida kapital ta'mirlash (manzil: Toshkent sh., Yunusobod tumani, Amir Temur shoh  
ko'chasi, 24-uy) loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha

## TEXNIK TOPSHIRIQ

1. Buyurtmachi bo'linmaning nomi	“UMS” MChJ Ma'muriy departamenti, Binolarni ekspluatatsiya qilish, qurilish va ko'chmas mulk bo'limi
2. Obyekt nomi:	“UMS” MChJ Markaziy ofisi binosining 7-qavat xonalari uchun dizayn-loyiha hamda quyidagilar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari to'plamini ishlab chiqish: “UMS” MChJ Markaziy ofisi binosining 7-qavat xonalarni qayta rejalashtirish maqsadida kapital ta'mirlash, manzil: Toshkent sh., Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi, 24-uy.
3. Obyekt manzili:	Toshkent sh., Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi, 24-uy.
4. Loyihalash uchun asos	Rivojlanish strategiyasi; rahbariyat qarori.
5. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar	7-qavatdagi ichki xonalarning kapital ta'mirlanishi umumiy maydoni MO = *1350 kv.m. *Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar taxminiy bo'lib, dizayn-loyiha va LHni ishlab chiqish jarayonida aniqlanishi mumkin.
6. Loyihalash bosqichlari	<p>Quyidagi loyihalash bosqichlarini ko'zda tutish:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Binoning butun 7-qavati uchun dizayn-loyiha ishlab chiqish.</li> <li>2. Eskiz loyiha.</li> <li>3. Ishchi hujjatlar</li> <li>4. Loyiha-smeta hujjatlari</li> <li>5. Mualliflik nazoratini olib borish</li> </ol> <p>Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun tasdiqlash va optimal texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni tanlash maqsadida arxitektura-qurilish va rejalashtirish yechimlarining kamida 3 ta variantini taqdim etish. Bunda ularning qiyosiy afzalliklari va nisbiy qiymati asoslab berilishi lozim.</p>
7. Loyihalashtirish muddatlari va to'lov shartlari	<p>Dizayn-loyiha hamda barcha bo'limlarni o'z ichiga olgan LSH to'plamini ishlab chiqish muddati - Buyurtmachi loyihalashtirish topshirig'ini tasdiqlagan sanadan boshlab 60 kalendar kun. Dizayn-loyiha va LSH to'plamining barcha bo'limlari yakuniy ishlab chiqilishidan oldin Buyurtmachi bilan majburiy tartibda kelishib olinishi shart.</p> <p>“UMS” MChJ Markaziy ofisi binosining 7-qavati xonalari uchun dizayn-loyiha hamda loyiha-smeta hujjatlari to'plamini ishlab chiqish bo'yicha bajarilgan ishlar uchun to'lov Pudratchi tegishli majburiyatlarni to'liq bajargandan so'ng, Tomonlar bajarilgan ishlar dalolatnomalarini imzolagan va hisob-faktura olingan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi. Yakuniy to'lov ekspertiza organining ijobiy xulosasi olinib, u “Shaffof qurilish” onlayn-platformasining ekspert xulosalari yagona reyestriga kiritilgandan so'ng, bajarilgan ishlar dalolatnomalari asosida amalga oshiriladi.</p>
8. Buyurtmachining ish tartibi	<p>Korxonada besh kunlik ish haftasi joriy etilgan bo'lib, ish vaqti dushanbadan jumagacha soat 9:00 dan 18:00 gacha etib belgilangan. Tushlik tanaffusi — soat 13:00 dan 14:00 gacha. Dam olish kunlari — shanba va yakshanba hisoblanadi. Bayram kunlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi. Pudratchi Shartnomani bajarishda ushbu jadvalga rioya qilishi lozim.</p>

<p>9. Dizayn loyihasiga qo'yiladigan asosiy talablar.</p>	<p>Ishni bajaruvchi dizaynni ishlab chiqishda uzoq muddat foydalanishni ta'minlaydigan, shuningdek yong'inga qarshi, ekologik va sanitariya me'yorlariga mos keladigan zamonaviy pardoqlash materiallari va buyumlarini qo'llashni ta'minlashi shart. Bunda ish/xizmat natijasi Buyurtmachining funksional talablariga, uslubiy afzalliklari va istaklariga javob berishi kerak. Shuningdek, high-tech (xay-tek) kabi zamonaviy dizaynerlik yechimlari va texnik talablarni qo'llagan holda me'moriy uslubni hisobga olgan holda konsepsiyani ishlab chiqishni o'z ichiga olishi lozim;</p> <p>Loyihada qo'llaniladigan materiallar va mebellarning batafsil spetsifikatsiyasi (markasi, turi, shtrix va QR kodlari, katalog raqamlari va boshqalar) imkon qadar ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchining aloqa ma'lumotlari (manzili, aloqa telefoni, veb-sayti) ko'rsatilgan holda mavjud bo'lishi kerak. Spetsifikatsiyada dizayn-loyihada qo'llaniladigan materiallar hajmi, shu jumladan mebellar, imkon qadar o'lchov birligi narxi ko'rsatilgan holda ro'yxat keltirilsin. Amalga oshirish bosqichida mualliflik kuzatuv, obyektning funksionalligi va qulayligini ta'minlash uchun o'zaro bog'liq va birgalikda ishlaydi. Ishlarni bajaruvchi mualliflik nazoratini olib borishda qurilish ishlarining tasdiqlangan dizayn-loyihaga muvofiqligini nazorat qiladi.</p>
<p>10. Loyiha-smeta hujjatlariga qo'yiladigan talablar</p>	<p>Loyiha-smeta hujjatlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, qurilish sohasidagi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilsin. Loyiha-smeta hujjatlari bo'limlarining tarkibi va mazmuni ShNQ, QMQ, SanQvaNning normativ talablari va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asosan shakllantirilsin. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishda buyurtmachi bilan oldindan kelishilgan zamonaviy qurilish materiallari, buyumlari va uskunolari qo'llanilsin. Qurilish ishlari davomida mualliflik nazorati olib borilsin.</p>
<p>11. Dizayn-loyiha bo'yicha loyiha hujjatlari tarkibi.</p>	<p><b>Dizayn loyihasi quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Nuqsonlar qaydnomasi.</li> <li>• Chizmalar.</li> <li>• Vizualizatsiya.</li> <li>• Pardoqlash materiallari, mebel va jihozlar spetsifikatsiyasi.</li> <li>• Tushuntirish xati.</li> </ul> <p><b>Dizayn loyihasi quyidagi chizmalarni o'z ichiga olishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Qayta rejalashtirish natijasidagi devorlar rejasi (quriladigan to'siqlar va konstruksiyalar).</li> <li>• Mebellarni joylashtirish rejasi.</li> <li>• Loyihada qo'llaniladigan materiallarning barcha batafsil o'lchamlari ko'rsatilgan shiftlar rejasi.</li> <li>• Loyihada qo'llaniladigan materiallarning barcha batafsil o'lchamlari ko'rsatilgan holda pollar rejasi va eksplikatsiyasi.</li> <li>• Muhandislik tizimlari: rozetkalar, o'chirgichlarning joylashuvi,</li> <li>• Elektr uskunalarini o'rnatish va montaj qilish rejasi (barcha xonalarni shamollatish va konditsionerlashtirish tizimini qo'shgan holda).</li> <li>• Santexnika jihozlarini o'rnatish rejasi.</li> <li>• Isitish qurilmalarini o'rnatish va montaj qilish rejasi.</li> <li>• Devorlarni yoyma tasvirlash rejasi.</li> <li>• Loyihada qo'llaniladigan materiallar va mebellarning barcha batafsil o'lchamlari ko'rsatilgan devorlarni pardoqlash rejasi.</li> <li>• Boshqa tegishli bo'limlar.</li> </ul>

<p>12. Loyiha hujjatlari tarkibi.</p>	<p>1-JILD: Umumiy tushuntirish xati: arxitektura-shaharsozlik, muhandislik-texnik, konstruktiv, iqtisodiy, texnologik va boshqa loyiha yechimlarini asoslash, asosiy foydalanish va hajmiy-rejalashtirish ko'rsatkichlari (qurilish hajmi, hisoblangan va umumiy maydon, obyekt qurilishi qiymati), qurilishni tashkil etish loyihasi (QTEL) bilan birga.</p> <p>2-JILD: 1) 7-qavat xonalarining ichki interer dizayni eskizi; 2) Arxitekturaviy yechimlar (AY); 3) Konstruktiv va hajmiy-rejalashtirish yechimlari; 4) Elektr yoritish (EY); 5) Elektr ta'minoti (ET); 6) Suv ta'minoti va kanalizatsiya (STK); 7) Isitish va shamollatish (ISh); 8) Tuzilmali kabel tarmog'i (TKT); Uzluksiz quvvat ta'minoti tizimi; 9) Texnologik yechimlar (TY); 10) Yong'indan himoya va qo'riqlash signalizatsiyasi hamda videokuzatuv; 11) Barcha turdagi ishlar uchun nuqsonlar ro'yxati; 12) Qurilish-montaj ishlari uchun mahalliy resurs smetalari;</p>
<p>13. Arxitektura yechimlariga qo'yiladigan asosiy talablar</p>	<p><b>7-qavatning ichki pardozi:</b> <b>Devorlar</b> - dizaynga muvofiq, <b>Shiftlar</b> - dizaynga muvofiq, <b>Pol</b> - dizaynga muvofiq,</p>
<p>14. Muhandislik uskunolari va muhandislik-texnologik ta'minot tarmoqlariga qo'yiladigan asosiy talablar</p>	<p><b>Ichki yoritish</b> - Buyurtmachi bilan kelishilgan dizayn loyahasiga muvofiq LED va shunga o'xshash kam elektr energiyasi sarflaydigan yong'inga chidamli yoritgichlardan foydalanib bajarish kerak. <b>Binoni isitish</b> - Issiq pol, xonalarning rang gammasini hisobga olgan holda isitish tizimining barcha mavjud quvurlari va radiatorlarini zamonaviy turdagi radiatorlarga almashtirish va ko'chirish, PPR quvurlaridan foydalanish. <b>Ventilyatsiya</b> - 7-qavatning butun maydoni uchun ventilyatsiya va havo aylanish tizimini ko'zda tutish. <b>Suv ta'minoti</b> - Sovuq va issiq suv ta'minoti zamonaviy PPR quvurlaridan ko'zda tutilsin; issiq suv ta'minoti uchun "Ariston" turidagi suv isitgichlardan foydalanish. <b>Suv chiqarish va kanalizatsiya</b> - loyiha hisob-kitoblariga muvofiq amalga oshirilsin.</p>
<p>15. Yong'in xavfsizligiga doir asosiy talablar</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi me'yorlarga muvofiq yong'in xavfsizligi tizimini loyihalashtirish. O'rnatiladigan asbob-uskunalar va yong'inga qarshi himoya vositalarini oldindan Buyurtmachi bilan kelishib olish zarur.</p>
<p>16. Qo'riqlash signalizatsiyasi tizimiga qo'yiladigan asosiy talablar</p>	<p>Qo'riqlash signalizatsiyasini amaldagi me'yorlarga muvofiq loyihalashtirish. O'rnatiladigan uskunalar va qo'riqlash signalizatsiyasi vositalarini oldindan Buyurtmachi bilan kelishib olish lozim.</p>
<p>17. Smeta hujjatlariga talablar</p>	<p>Smeta hujjatlari hajmi amaldagi me'yorlar va qoidalarga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bo'lishi shart. Yig'ma smeta hisob-kitobi joriy narxlarda, inflyatsiya xavfini hisobga olgan holda materiallar, buyumlar, uskunalar va boshqalarga bo'lgan bozor konyunkturasini o'rganib chiqib, amalga oshirilishi kerak.</p>

18. Taqdim etiladigan hujjatlarning tarkibi va to'liqligiga qo'yiladigan talablar

**Dizayn-loyiha;** Ijrochi ish natijalarini A3 formatdagi albomlar ko'rinishida 3 nusxada (asl nusxalar) qog'oz shaklida va qattiq diskda elektron shaklda (pdf va dwg formatlarida) rasmiylashtirishlari lozim. Ijrochi dizaynning grafik qismini batafsil chizmalar ko'rinishida taqdim etishi kerak (binoning turli tomonlardan ko'ringan fasad rejasi, mebellar joylashgan xonalar rejasi, devorlar, shiftlar va pollarni pardoqlash, pardoqlash materiallarini kesish, elektr simlari va yoritish reja-sxemalari va hokazo), qo'shimcha bo'limlar hamda fasadni pardoqlashda va xonalar interyerida qo'llaniladigan pardoqlash materiallari va mebellarning spetsifikatsiyasi (materiallar ehtiyoji), A3 formatidagi albom ko'rinishida 3 nusxada.

**Loyiha-smeta hujjatlari;** Loyiha hujjatlari bo'limlarining tarkibi va mazmuni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qurilish qonunchiligiga, qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq, mahalliy iqlim sharoitlari, seysmik vaziyat hamda O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan yong'inga qarshi, sanitariya-gigiyena, ekologik va boshqa me'yorlar talablarini inobatga olgan holda shakllantirilsin.

Buyurtmachiga belgilangan tartibda kelishilgan loyiha-smeta hujjatlari 3 nusxada qog'oz ko'rinishida va 1 nusxada elektron tashuvchida quyidagi ko'rinish va formatlarda taqdim etiladi:

Loyiha hujjatlari (matn qismi):

doc Word: pdf; AutoCAD

Loyiha hujjatlari (Sxematik (grafik) qismi):

pdf; AutoCAD

Smeta hujjatlari elektron formatda (Excel) va qog'oz shaklida 3 nusxada taqdim etiladi.

**Eslatma: Yuqorida ko'rsatilgan barcha bandlar bo'yicha xarajatlar Pudratchining zimmasiga yuklanadi.**

**KELISHILDI:**

BEQQ va KMB boshlig'i

BEQQ va KMB TNG rahbari

BEQQ va KMB TNG yetakchi mutaxassisi

BEQQ va KMB TNG katta mutaxassisi

 R.B. Sidiqov

 Y.R. Abdiganiyev

 A.V. Bejensev

 N.N. Pulatov